

**BOLALAR MUSIQA MAKTABLARIDA MUSIQIY-NAZARIY  
FANLARNI O'QITISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR  
QO'LLAGAN HOLDA INTERFAOL DARS SHAKLLARINI TASHKIL  
ETISH USULLARI**

*Qarshi ixtisoslashtirilgan sanat maktabi  
Musiqa nazariya bolimi olyi toifali oqituvchisi  
Rashidova Umida Xamidovna*

**ANNOTATSIYA;** Maqolada bolalar musiqa maktablarida musiqiy-nazariy fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalar va media vositalarni qo'llagan xolda interfaol dars shakllarini tashkil etish usullari amaliy natijalar asosida yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Bolalar musiqa maktablari, pedagogika, innovatsiya, texnologiya, interfaol, "Solfedjio", "Musiqa adabiyoti", "Musiqa tinglash", texnologik xarita.

Interfaol doska xozirgi kunga kelib pedagogika va ko'pgina sohalarning dolzarb ish quroli sifatida gavdalanib kelmoqda. Sir emaski mediya texnika sohasi kundan kunga rivojlanib, yangilanib borayapti. Horij xamkasblarimizning faoliyatini kuzatishlarimiz natijasida interfaol doskalarning sensorli modellarini musiqa ta'limida xam ko'llanilib kelinayotganiga guvoh bo'ldik. Ushbu sensorli interfaol doskalar yoki interfaol panellar xuddi smartfon, planshet kabi ishlaydi. Faqat ular doska ko'rinishida bo'ladi. Agar ularni avvalgi musiqiy elektron doskalar bilan solishtiradigan bo'lsak, sensorli doskalarda turli musiqiy dasturlardan, interaktiv elektron qo'llanmalardan foydalanish imkonini beradi. Sensor doskalar bevosita kompyuter va proektor uskunalarini ulanishi orqali qo'llaniladi, senrsorli panellarning afzalligi shundaki ular proektorsiz dasturlarni flesh karta orqali panelga ko'chirish yordamida turli vazifalarni bajarish mumkin. Bunday sensorli panellar albatta o'quvchilar bilan ishlashda katta imkoniyatlarni ochadi. Turli ritmlar keltirilgan bir qancha kartochkalar asosan darsda ritmik guruqlar bilan

ishlashda qo'llaniladi. Bunday kartochkalar turli o'lchov birligiga mo'ljallangan bo'lib, ularni o'rmini o'zgartirish orqali turli kombinatsiyalarni hosil qilish mumkin. Ritmli kartochkalarni qo'llash jarayoni juda qiziq bo'lib, o'quvchilar turli ritmik figuratsiyalarni katta qiziqish bilan ijro etishadi. Ritmik guruhlar keltirilgan kartochkalar avval osonroq ketma ketdikda qo'yib chiqilib, so'ng ularni nisbatan murakkab ritmik guruhlar berilgan kartochkalar bilan almashtirib boriladi. Eshitish qobiliyati – musiqachining eng asosiy va muhim ko'nikmasi hisoblanadi. "Solfedgio" fani esa bunga hizmat qiluvchi asosiy fandir. Musiqiy idrok, musiqani tinglash ko'nikmalari inson bolaligidanoq singdirilishi lozim. Bu ko'nikmalar qanchalik barvaqt va to'g'ri tarbiyalanilsa shunchalik o'z samarsaini beradi. Musiqachida musiqa eshitish qobiliyati badiy musiqa tinglash jarayoni orqali tarbiyalanadi. Dars jarayonida muntazam xalq ijodi, kompozitorlik, turli davr badiiy musiqa namunalarini tinglash o'quvchilarda ichki eshitishni ham rivojlantiradi. Ichki eshitish ovoz iintonatsiyaning tozaligiga hizmat qiluvchi omillardan biridir. Dars jarayonida tinglaniladigan namunalar bevosita original ko'rinishda bo'lishi muhimdir. Bu borada "Musiqa adabiyoti" faning ahamiyati ham katta. Musiqa tinglash jarayonida ijroni videolavhalar bilan ko'rib tinglash o'quvchilarda musiqani qabul qilish idrokini shakllantiradi. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish va testlashda musiqiy trenajyor mobil dasturlar hozirgi vaqtga musiqachilar orasida keng tarqalgan dasturlardan biri hisoblanadi. Musiqiy trenajyor dasturlar yordamida musiqachilar o'z eshitish qobiliyatlarini rivojlantirishlari va uni test qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Eshitish qobiliyati uchun trenajyorlardan "Solfedgio" fanida barcha sinf o'quvchilarida qo'llash mumkin. Amaliyot davomida biz 1-2 sinf o'quvchilarida asosan Jungle music dasturidan, katta sinflarda esa Rossiyalik dasturchilar tomonidan ishlab chiqilgan "Idealъnyiy slux" saytidan foydalanildi. Jungle music dasturi o'yin shaklida tuzilgan bo'lib, ushbu o'yin orqali asosan nota savodi va notalarning ohangi ustida ishlashga yordam beradi. Bu o'yinli dastur asosan ortda qolayotgan, notalarni eslab qolishi qiyin kechayotgan, dars shakli individual tarzda olib borilayotgan o'quvchilar ustida tajriba sifatida qo'llanildi. Natija esa juda qoniqarli bo'lib,

birinchi navbatda o'quvchini o'ziga nisbatan ishonchini ortishi, darsga bo'lgan qiziqish, notalarni osonroq yodda qolishi va ularni intonatsiya qilishda yahshilanishlara kuzatildi. "Idealniy slux" saytidan esa asosan yuqori sinf o'quvchilarida qo'llanilish maqsadga muvofiqdir. Sayt dasturida musiqa nazariyasining barcha bosqichlari guruhlarga bo'linib chiqilgan: intervallar, uchtonlar, gamma va ladlar, uchtovushliklar, uchtovushliklar aylanmalari, xarakterli intervallar, dominantseptakkord va uning aylanmalari, yetakchi septakkordlar. Xar bir gurux testlarida darajasi va ko'rinishlarini tanlash imkonи mavjud. Misol uchun interval mavzusida barcha intervallar berilgan va ularni orasidan ba'zilarini tanlab olish (o'tilgan mavzuga qarab) yoki barchasini tanlash (yil yakunida, nazorat darslarida) imkonи mavjud. Keyingi bosqich intervallarni melodik yoki garmonik xolatini tanlash. So'ngra trenajyor yoki testni tanlash. Mazkur dasturdan o'quvchilar ham mustaqil, ham o'qituvchi, sinf bilan birga ishlashlari mumkin. Albatta ushbu dasturlardan muntazam barcha darslar davomida foydalanishnipyg iloji yo'q. Sababi "Solfedjo" va "EMN" fanlariga ajratilgan vaqt chegaralangan bo'lib, dars vaqtining hajmi guruhdagi o'quvchilar soniga ham bog'liq. Shu tuyayli ham yuqorida aytilgan musiqiy dasturlardan o'tilgan mavzularni mustahkamlash, nazorat darslarida qo'llanildi. "Musiqa adabiyoti" fanini o'qitishda media texnikalar, internet resurslari juda katta axamiyatga ega. "Musiqa adabiyoti" va "Musiqa tinglash" fanlarida o'quvchilar ma'lumotni xam vizual, xam verbal olishlari muhim omil hisoblanadi. Ma'lumot bir vaqtning o'zida ham vizual va verbal qabul qilinganda hotirada chuqr muxrlanib qoladi. Buning uchun bizga albatta kompyuter texnologiyalari, internet resurslari va turli media texnikalar katta xizmat ko'rsatadi. Mavzularni slaydlar, kompozitorlar tasviri tushirilgan rasmlar, asar ijrosining original varianti ijrosi tasvirlangan videolavhalarni ko'rsatish, kompozitor xaqida qiziqarli faktlarni kelitirish, uni ijod qilgan davri bilan tanishtirish, bevosita o'sha davrning boshqa san'at turlari va ularning umumiyl jixatlarini solishtirish kabi tajribalar o'quvchilarni diqqat e'tiborini kuchaytiradi. Musiqa ifoda vositalari, musiqiy shakl, janrlar mavzusini o'tishda internet

tarmoqlaridan olingen turli qiyosiy diagrammalar, slaydlar va o'qituvchining xar bir ma'lumotni amaliy asoslab berishi, ko'rsatishi o'quvchilarni nega ushbu fanni o'rganishlari va o'tilayotgan mavzular ularning amaliyotida qanday ahamiyatga ega ekanligini bir muncha tushunib yetishiga yordam beradi. Bir qarashda bu unchalik muhim ko'rinasada o'quvchilarning ma'lumot qabul qilishining psixologik tomonlarini bilish juda katta axamiyatga ega. Xozirgi vaqtda yosh avlodga berilayotgan axborotni to'g'ri talqin qilib berish, uni maqsad va musiqadagi o'rnini tushuntirish joiz. Shunday xolatlardagina biz o'quvchilarimizni berilayotgan axborotlarni yaxshi eslab qolishlariga erishdik desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu esa o'qituvchini so'z boyligi, fikrini aniq va tushunarli qilib yetkiza olish mahoratini rivojlangan bo'lishi ahamiyatlidir.

**Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:**

1. Strajnikova Tat'yana Ivanovna Innovatsionnye texnologii obucheniya v sisteme muzikalnogo obrazovaniya.
2. Tomasheva Angelina Arkadevna. "Sostoyanie muzikalnoy sinestezii"
3. Taraeva G.R. Kompyuternaya muzika i teoreticheskie problemy muzikal'nogo yazyska.